

Qishloq Qurilish Bank

Xalqaro hamkorlik

BANKNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI

Xalqaro moliya institutlari bilan vakillik munosabatlari, banklararo operatsiyalar va savdoni moliyalashtirish sohasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash ATB "Qishloqqurilishbank" ning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bankning ishonchli hamkorlari qatoriga Commerzbank AG (Germaniya), Jahon banki tarkibidagi Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi, shuningdek, Islom Taraqqiyoti Banki guruhiga kiruvchi Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki (Fillipin) kabi va boshqa xalqaro moliya institutlari kiradi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali, OATB "Qishloq qurilish bank" faoliyati yo'nalishiga bevosita aloqador bo'lgan, tashqi savdoni moliyalashni tashkillashtirish, qishloq xo'jaligi va kichik biznes sub'ektlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, qishloq joylarda turar joyni kreditlash imkoniyatlariga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda bankning vakillik tarmog'iga asosan hamkor xalqaro moliya institutlardan: Commerzbank AG (Germaniya), ATB "Promsvyazbank" (Rossiya), ATB "Ruslavbank", ATB "Svyazbank", YOAJ "Aziya-Invest Bank", Novikombank va boshqa banklar kiradi.

Kelgusida Amerika va Yevropaning JP Morgan Chase-AQSh, Raiffeisen Bank-Avstriya kabi va boshqa yirik banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish rejalashtirilmoqda.

15.09.2016 y.